

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Buxoro davlat universiteti

O.X. Xamidov

2025 yil

**IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIV MA'LUMOT OLISH BO'YICHA
60220300-TARIX TA'LIM YO'NALISHIGA KIRISH SINOVLARI
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Buxoro – 2025

Tuzuvchilar:

F.U.Temirov – BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d., (PhD) dotsent

J.Sh.Haitov – BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, t.f.f.d., (PhD)

K.J.Rahmonov – BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, t.f.n.

Taqrizchilar:

Y.A.Shukrullayev – BDTU, Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, t.f.n.

T.Xudoyqulov – BDTU, Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, t.f.n.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tashkil etishning xalqaro standartlarga mos bo‘lgan samarali tizimini shakllantirish borasida yirik islohotlar davom etmoqda. So‘nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida ehtiyoj yuqori bo‘lgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashni ta’minlash, xorijiy tajribalar asosida oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqish, ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Islohotlarning bosh maqsadi yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, oliy ta’lim muassasalari orasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish va bozor sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2909-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarining magistraturasiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizom” mazkur dasturni tayyorlashning uslubiy asosi bo‘lib xizmat qildi.

Dastur mazmuniga ixtisoslik bo‘yicha asosiy tushunchalar, tayyorgarlik ko‘rish uchun savollar, foydalanish uchun tavsiya etilgan ta’lim zahiralari singdirilgan.

Tarix fanining predmeti – Uch ming yillik davlatchilik tarixi, boy madaniyat va bebaho ma’naviyatiga ega, insoniyat tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan, buyuk allomalarni voyaga yetkazgan o‘zbek xalqi hayotida istiqloq tub ma’naviy yangilanish jabhasini boshlab berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahnamoligida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirila-yotgan keng qamrovli islohotlar bois O‘zbekiston XXI asrga zamonaviy taraqqiyot yo‘li bilan kirib keldi.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda o‘tmish voqeligi, tarix faniga bo‘lgan munosabat davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan o‘tmish voqeligi xususida tarixiy adolat qaror topdi, tarixni ilmiy va

xolisona o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Ta'lim tizimiga ilk bora Vatan tarixi fani kiritildi, millatimiz qahramonlari, olimu-ulamo, sarkarda, el-yurt uchun hayoti kamarbasta bo'lgan buyuk zotlarning pok nomlari o'tmish zarvaraqalaridagi faxrli o'rinlariga qaytarildi. «O'zbekistonning yangi tarixi markazi», «O'zbekiston FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorlar, Prezident Sh.M. Mirziyev asarlari O'zbekiston tarixini zamonaviy tarzda o'rganishning nazariy – konseptual asosini shakllantirishga turtki bo'lib xizmat qildi. Voqelik va jarayonlarni ilmiylik, xolislik, tarixiylik, uzviylik tamoyillari orqali tahlil etish, birlamchi manbalarga suyangan holda hamda masalani milliy manfaatlar nuqtai - nazaridan turib tahlil etish ushbu konsepsiyaning asosi sifatida xizmat qilmoqda.

Tarix fan sifatida jahon va O'zbekiston tarixini davlat va jamiyat taraqqiyoti natijasi ekanligi, O'zbekiston davlatchiligining rivojlanishi dinamikasini ko'rsatib berish. Shuningdek, Markaziy Osiyo sivilizasiyasining ilk ildizlari va rivojlanish xususiyatlari, manbalari. Markaziy Osiyoda dastlabki dehqonchilik madaniyati (Joyitun, Oltintepa, Gonurtepa). Miloddan avvalgi II ming yillikda Markaziy Osiyo. Shaharsozlik madaniyati va davlatchilik tarixi (Xorazm, Baqtriya, So'g'd, Farg'ona). Xorazm, Yunon-Baqtriya. Kushon davri madaniyati va san'ati tarixi. Buyuk Ipak yo'li. Zardushtiylik. Markaziy Osiyoning ilk o'rta asr madaniyati. Musulmon davri. IX – XII asrlarda madaniyat, Fan, san'at. Markaziy Osiyoning uyg'onish davri. XIV- XVI asrlarda madaniyat, Fan, san'at. Temur va Temuriylar davri. XVI – XVIII asrlarda Markaziy Osiyo. Madaniyat va san'at – to'g'risida tushuncha berish.

Fanni o'qitishning maqsadi – Tarix fani tarixining turli bosqichlarida ro'y bergan muhim voqealar va jarayonlarni, insoniyatning ko'p asrlik taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan omillarni, tarixiy rivojlanish davomida turli mamlakatlar va mintaqalarga xos bo'lgan xususiyatlarni, dunyoning turli chekkalarida ro'y bergan voqealar va jarayonlarning ko'p hollarda o'zaro bog'liqligini, tarixiy rivojlanishning barcha mamlakatlar uchun umumiy qonuniyatlar mavjudligini tadqiq etishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifalari – Tarix fani tarixining turli bosqichlarida ro'y bergan muhim voqealar va jarayonlarni o'rganish, tarixiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatgan omillarni tahlil etish, tarixiy rivojlanish davomida mamlakatlar va mintaqalar tarixiga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib berish, xalqlarning mentaliteti, urf-odatlarini, madaniyatini ilmiy tadqiq etish, dunyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va etnik evolyutsiyasining asosiy bosqichlari hamda yo'nalishlarini tushuntirishdan iborat.

Tarix fanining fan sifatida tutgan o'rni.

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o'tmishga oid har xil voqea-hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi, insoniyatning paydo bo'lishi va uning tadrijiy-evolyutsion rivojlanish jarayoni va boshqalarni o'rganadi. Shuningdek, O'zbekiston tarixi umumjahon-insoniyat tarixining ajralmas

qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. O‘zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdodlarimizning hayoti qanday bo‘lganligini, jahon tarixi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o‘rganadi.

Ta’kidlash lozimki, tarixiy, milliy-madaniy, axloqiy va diniy qadriyatlarni o‘rganish, tiklash va yangi asoslarda rivojlantirish – yoshlar, ta’lim va tarbiya tizimidagi talabalarning Dunyoqarashida milliy g‘urur hamda o‘zlikni anglash, ular ongida vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini yanada mustahkamlash bugungi davr talabidir.

O‘zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, usullari va tamoyillari.

Har qanday fan kabi O‘zbekiston tarixi fani ham o‘zining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega. Bular O‘zbekiston tarixi fanining asosini tashkil etib, uning rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo‘lidagi nufuzini ortib borishi uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, ilmiy-nazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qiladilar.

Agar tarix insoniyat yashab rivojlanishi uchun ijtimoiy zaruriyat va ma’naviy-ma’rifiy ehtiyoj bo‘lsa, tarix fani esa, bu ehtiyojlarni ro‘yobga chiqishi uchun ma’sul bo‘lgan yuksak intellektual ilmiy-amaliy faoliyatdir. Buning samarali bo‘lishi ya’ni, tarix fani rivojlanishida metodologik ilmiy g‘oya va nazariyalar hamda usul va uslubiy tamoyillarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki, bular tarixning mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq ochib berishga, shuningdek, tarix fanining maqsad va vazifasini to‘laroq ro‘yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuning uchun ham O‘zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, g‘oya va ta’limotlari nimalardan iborat bo‘lishi o‘ta muhim masala hisoblanadi.

O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari. O‘rta Osiyo mintaqasi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo‘lib, insoniyat qadimgi tarixi va madaniyati o‘chog‘laridan biri hisoblanadi. Uzoq yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlar natijasida mintaqaning turli viloyatlarida bir umumiy, bir-biriga o‘xshash, ko‘p hollarda bir-birini takrorlaydigan madaniyatga oid yodgorliklar topib o‘rganilgan. Chunonchi, O‘rta Osiyo hududlarida qadimgi davrlarda yuz bergan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bir-biriga yaqin bo‘lib, turli migratsion jarayonlarga qaramasdan bu hududda yashagan qadimgi qabilalar va elatlarni umumiy va etnik ildizlar birlashtirib turgan. Shuning uchun ham O‘rta Osiyo xalqlarining tarixiy taqdiri qadimgi davrlardan boshlab bir-biriga uzviy bog‘langan bo‘lib, qadimgi davrlar haqida so‘zlaganimizda “O‘rta Osiyo tarixi”i va “O‘zbekiston tarixi” atamalarini yonma-yon ishlatishimizning boisi ham ana shundadir.

Ma’lumki, nafaqat O‘zbekiston, balki butun insoniyat tarixi uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, tarixiy-madaniy voqealarga nihoyatda boy hisoblanadi. So‘nggi yillarda

O'rta Osiyoning turli hududlarida arxeologiya, antropologiya, etnografiya va numizmatikaga oid ko'plab kashfiyotlar qilindi hamda tariximizni xolisona yoritish uchun xizmat qiladigan muhim ma'lumotlar to'plandi. Ushbu ma'lumotlar va ashyolar o'lka tarixining qadimgi bosqichlaridagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida yanada to'laroq tasavvurlar hosil qilish imkonini berib, ular eng qadimgi xo'jaliklar va mehnat qurollari, zamonaviy qiyofadagi odamning paydo bo'lishi, xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllariga o'tilishi, ishlab chiqarishda metallning ishlatila boshlanishi, ayirboshlash va savdo sotiq, ilk shaharlar va davlatlarning tashkil topishi kabi ko'plab tarixiy-madaniy jarayonlar bilan bog'lanadi. Tarixni davrlashtirishda ushbu jarayonlarga asosiy e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. O'zbekiston tarixining eng qadimgi davri. Bu davrni o'z navbatida quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: a) O'rta Osiyoda ibtidoiy to'da davri – bu davr moddiy madaniyat taraqqiyotiga qarab xronologik jihatdan 1 mln. – 40 ming yil avval ya'ni, ilk va o'rta paleolit davrlarini o'z ichiga oladi; b) urug'chilik jamoasi davri so'nggi paleolitdan boshlab urug'chilik, jamoalarining shakllanishi va mezolit, neolit, eneolit davrlarida ularning taraqqiy etishi (12-4 m.y.). Bu davr ijtimoiy boshqaruvning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan izohlanadi.

2. Ilk davlatchilikka o'tish va davlatchilikning rivojlanishi davri. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot nuqtai nazaridan bu davr quyidagi bosqichlarga bo'linadi: a) O'rta Osiyoda ilk shahar madaniyatining paydo bo'lishi hamda dastlabki davlatchilik tizimiga o'tish davri (mil. avv. III – II ming yillikning birinchi yarmi); b) ilk davlatlarning paydo bo'lishi hamda ma'muriy-hududiy boshqaruvining rivojlanish bosqichlari (mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi-antik davri). Bu davr dastavval bronza, keyinroq esa temirning xo'jalik sohalariga jadallik bilan kirib kelishi natijasida mehnatning dastlabki ijtimoiy taqsimoti, ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti, siyosiy birlashmalar, Qadimgi Baqtriya va Xorazm kabilarning paydo bo'lishi, O'rta Osiyoning Ahamoniylar, Makedoniyalik Aleksandr, Salavkiylar kabi polietnik davlatlar tarkibida rivojlanishi, xalqaro va o'zaro madaniy-iqtisodiy aloqalarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

3. O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davri. Bu davr o'z navbatida quyidagi bosqichlarga bo'linadi: a) ilk o'rta asrlar; b) rivojlangan o'rta asrlar; v) so'nggi o'rta asrlar bosqichi. Xronologik jihatdan V asrdan XVIII-XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan bu davrning birinchi bosqichida O'rta Osiyoda yer egaligi munosabatlari o'zgarib, mulkchilikning turli shakllari (xususiy mulk, jamoa mulki, vag'nze) paydo bo'ldi, etnomadaniy jarayonlar jadallanib, mahalliy hokimiyatchilik davlat tizimining asosiga aylanadi. Ikkinchi bosqichda markazlashgan davlatchilik an'analari kuchayib, O'rta Osiyoda islom dini keng yoyiladi, ilm-fan va madaniyat yuqori darajada rivojlanib bu sohada uyg'onish yuz berdi, etnik jihatdan xalqlarning

shakllanishi nihoyasiga yetdi, yer egaligi va mulkchilikning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘ldi. Uchinchi bosqichda (XVII asrdan boshlab) hokimiyat uchun o‘zaro kurashlar avj olib O‘rta Osiyo hududlari xonliklarga bo‘linib ketdi.

4. O‘zbekistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovetlar hukmronligi davri. Xronologik jihatdan XIX asrning o‘rtalaridan 1991 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan bu davr mustamlakachilik davri va sovet davri bosqichlariga bo‘linadi. Birinchi bosqichda chorizm bosqinchiligi tufayli O‘rta Osiyo Rossiyaning xom-ashyo bazasiga aylanib, bu hududlarga rus kapitali jadallik bilan kirib keldi, mahalliy ishlab chiqarish va hunarmandchilikka putur yetdi, milliy-madaniy qadriyatlarga e‘tibor berilmadi, natijada milliy ozodlik haraklari avj olib jadid namoyondalari rahnamoligida milliy ma‘rifparvarlik g‘oyalari yoyildi. Ikkinchi bosqichda, dastavval milliy mustaqilliq uchun qurolli va g‘oyaviy kurashlar avj olgan bo‘lsa-da, ular beayov bostirilib, jamiyat taraqqiyoti kommunistik mafkuraga bo‘ysundirildi, mulkchilikda davlat monopoliyasi ustunlik qildi, “o‘z taqdirini o‘zi belgilaydigan xalqlar va sovet respublikalari amalda “markazl manfaatlariga bo‘ysundirildi.

5. O‘zbekistonning mustaqillik va milliy istiqlol davri. Tarix fanini o‘qitish borasida dolzarb bo‘lib turgan davrlashtirish masalalari hali jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lishi tabiiydir. Ammo, bu yo‘nalishda aniq konsepsiya ishlab chiqilib, o‘quv jarayoniga joriy etilishi davr talabidir.

6. O‘zbekiston tarixini o‘rganishda manbalar va yordamchi fanlar. O‘zbekiston tarixi fani va tarixni o‘rganishda manbalarning o‘rni va ahamiyati behad katta. Shuning uchun ham ular millat va xalqning ma‘naviy- madaniy merosi, bebaho madaniy-tarixiy boyligi hisoblanib, maxsus hujjatxona (arxiv)larda, kutubxona va muzeylarda hamda oilaviy arxivlarda juda avaylab, ehtiyotkorlik bilan saqlanmoqda. Xalq og‘zaki ijodi orqali tillardan tillarga meros bo‘lib o‘tib kelayotgan tarixiy voqea va hodisalar bayoni, norrativ materiallar asosida bizagacha yetib kelmoqda. Binobarin, aynan tarixiy manba va yodgorliklar orqaligina tarixni yoritish tarixiy ma‘lumotlarni, dalillarni olish orqali ularni qiyosiy solishtirish va tarixiy umumlashtirish, bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy jarayonlar hamda voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarini, mazmun-mohiyatini tahlil qilish, tahlillar asosida esa ilmiy asoslangan xulosalar berish imkoniyatlari kengayadi. Oddiyroq qilib aytganda, ma‘lum manbalar va ularni umumlashtirmasdan turib haqqoniy tarixni yaratish mumkin emas.

Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi

Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi tushunchasi. Manba turlari va uni o‘rganish metodikasi. Qadimgi yozma manbalar sfragistika va numizmatika. Arxeologik manbalar. Me'morchilik yodgorliklari. Qadimgi Misr tarixshunosligi va manbashunosligi. G.Karterniing arxeologik izlanishlari.

Tutanxamon maqbarasi. Qadimgi Misr yozuvi va J.Shampalon. Manefon. Qadimgi Misr adabiyoti.

Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya) manbashunosligi va tarixshunosligi. Yozma manbalar, Xamurappi qonunlari. Hukmdorlar ro'yxati. Limmu, Beros. Assam silendri.

Kichik Osiyo tarixi manbashunosligi, arxeologik izlanishlar. Chatal Guyuk. Troya. G.Shlimen, D.Mellard, B.Grozniy, numizmatika.

Qadimgi Suriya, Palastin, Finikiya manbashunosligi va tarixshunosligi. Yozma manbalar. Yaxudiylikning asosi.

Qadimgi Eron manbashunosligi va tarixshunosligi. Arxeologik manbalar. Jarmo, Joytun, Xisor, Suza, Shaxtyepa, Shaxri-Soxta, Marlik, Ekbatan, Pyersopol. Qadimgi Eron tarixiga oid yunon manbalari. Qadimgi Hindiston manbashunosligi. Moxendjadar, Xarappa, Manu qonunlari. Atxashastra.

Qadimgi Xitoy manbashunosligi. Arxeologik yozma manbalar. Chjo-Kou-Dyan, manbalari ma'lumotlari, Anyan, Loyan, Sin-Shi Shuandi maqbarasi. Anyan yozma manbalari. Sima Syan solnomasi. Qadimgi Xitoy adabiyoti manba sifatida.

Qadimgi Mesopotamiya. Mesopotamiyaning tabiiy gyeografik shart-sharoiti. Iqlimi. Aholisi. Semitlar, Shumerlar, Kutiyalar, Lulibeylar, Oromiyalar Arxeologiya izlanishlari. Xo'jalik yozma manbalari. Huquq manbalari. Tarixiy manbalar. Ikki daryo oralig'i tarixini davrlashtirish. Inson tomonidan Ikki daryo hududlarini o'zlashtirish. Ilk sivilizasiya vujudga kelishi. Iqtisodiy rivojlanish. Stratifikasiyalangan jamiyat vujudga kelishi. Shahar-davlatlar. Davlat tuzumi. En, Lugal, Ensi, Kishni yuksalishi. En Menbargesi. Urukni yuksalishi. Mesanishada. Lagash. Eanatum.

Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi

Antik davr tarixiy tushunchasi. Antik davr va qadimgi Sharq davlatlarining tarixi. Antik qullik. Qadimgi Yunonistonning jahon tarixidagi o'рни. Qadimgi Yunonistonning tarixiy davrlari. Yunonistonning geografik o'рни, tabiiy sharoitlari. Tabiiy sharoitlarni Yunonistonning xo'jaligiga va tarixiy rivojlanishiga ta'siri. Qadimgi Yunoniston tarixidan asosiy manbalar va Yunoniston tarixnavisligi. Dengiz va tog'madaniyatlari tushunchasi. Miloddan avvalgi II ming yillikda Yunoniston. Krit-Miken jamiyati rivojlanishi xususiyati

Rim jamiyati rivojlanishi xususiyati. Respublika tuzumining vujudga kelishi, uning rivojlanishi, ravnaqi. Rim davlatining inqirozga uchrashi.

O'rta asrlar tarixi

O'rta asrlar tarixi manbalarini turkumlash. O'rta asrlar tarixi manbalarini umumiy tavsifi va ularni o'rganish uslubi. V-XI asrlar tarixi manbalari. Natural xo'jalik yer rentasi shakllari.

Krepostnoylikni kengayishi shart-sharoitlari. Patronat. Immunitet. German qabilalari. Feodalizm sintezi. O'rta asrlar tarixi manbalarini o'rganish muammolari.

Quldorlik tuzumining inqirozi va Rim imperiyasida feodal munosabatlarning vujudga kelishi. Emfitevisis. Patronat va kommendasiya. III-V asrlarda iqtisodiy inqiroz. Rim imperiyasining ijtimoiy va davlat tuzumi. G'oyaviy inqiroz. Imperiyaning xristianlashishi. Xalq ommasining ijtimoiy noroziligi va uning turlari. German qabilalarida ibtidoiy jamoa tuzumining inqirozi. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi. Ijtimoiy-siyosiy tashkilot. IV-V asrlarda siyosiy tuzumning o'zgarishi. Rim imperiyasining qulashi va varvar davlatlarining tashkil topishi. Xalqlarning buyuk ko'chishining sabablari. Vestgotlar. Vandallar. Xunlar. Arablar, Vizantiya imperiyasi, Slavyanlar, Yevropada birlashgan qirolliklar.

Yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari

Yangi davrda Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi. Yakov I va Karl I Styuartlarning ichki va tashqi siyosati. Parlamentda muxolifatning kuchayishi. Puritanlik. Inqilobning zamini va shart-sharoitlari. Inqilobning boshlanishi. Fuqarolar urushi. Levellerlar va respublikaning o'rnatilishi. Respublika va protektorat. Oliver Kromvel. Ikkinchi respublika va Styuartlarning tiklanishi. Fransiya burjua inqilobi. Germaniya va Italiyaning birlashishi. Shonli inqilob. Madaniyat va siyosiy fikr. XVIII asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniyaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Sanoat to'ntarilishi. Ingliz ma'rifatchiligi. Shimoliy Amerikada mustamlakalarning barpo etilishi. Ingliz mustamlakalardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat. Mustaqillik uchun urushning zamini va shart-sharoitlari. Mustamlakalar va metropoliya o'rtasidagi ziddiyatlar. Mustaqillik uchun urush va AQShning tashkil topishi. AQShning davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

Eng yangi davr tarixi

I Jahon urushining nihoyasi va insoniyat tarixida eng yangi davrning boshlanishi. 1917-yilgi Rossiyadagi inqiloblar g'arb mamlakatlariga ta'siri. 1918-yil kuz faslidagi Germaniya va Avstriya-Vengriyadagi inqiloblar va ularning oqibatlari. Birinchi jahon urushining natijalari. 1918-1923-yillarda xalqaro munosabatlar. Versa-Vashington xalqaro munosabatlar tizimi. Global toqnashuvlar. Fan va texnologiyalar. Harbiy aviatsiya. II Jahon urushi va uning oqibatlari. Afrika xalqlarining ozodlikka erishishi. Sovuq urush, SSSRning parchalanishi. Xalqaro munosabatlar va unda Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tutgan o'rni.

Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. - T.: O'zbekiston, 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild, - T.: O'zbekiston, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori // Xalq so'zi, 2020 yil, 28 fevral.
13. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent, 2019.
14. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. I - II– jild. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
15. A.Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi (qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T., 2000.
16. Abu Bakr ibn Jafar Narshaxiy. Buxoro tarixi T.: Kamalak, 1995.
17. Abu Rayhon Beruniy.Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. TA I jild, T.: Fan, 1968.
18. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T., 1993.
19. Abulg'azi. Shajarai turk. T.: Cho'lpon, 1990.
20. Avesto Asqar Mahka mtarjimasi.–Toshkent: Sharq, 2001.

21. Askarov A. Eng qadimgi shahar. - T., 2001.
22. Askarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. - T., 2007.
23. Askarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. - T., O'zbekiston. 2015.
24. Bunyodov Z.M. Anushtegin-Xorazmshohlar davlati. - T., 1998.
25. Ergashev Sh. Jahon tarixi (Yangi davr. 1-qism.XVI-XVIII asrlar). T., 2013.
26. Ergashev Sh. Jahon tarixi (Yangi davr. 1800-1918). -T., 2015.
27. Gumilev L.N. Qadimgi turklar. -T., 2007.
28. Dadaboev H. Amir Temurning harbiy mahorati. -T., 1996.
29. Jabborov I. O'zbeklar. – Toshkent, Sharq.2008.
30. Ibn Arabshoh. «Amir Temur tarixi». - T.: Mehnat, 1992.
31. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. - T., 1999.
32. Mahmud Qoshg'ariy. Devoni lo'g'oti turk. 1-3 jildlar. -T.: Fan, 1963.
33. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. - T., 1994.
34. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. -T., 1994.
35. Nasaviy. Siyrat as-Sulton Jaloliddin Manguberdi. -T.: 1999.
36. Nizomulmuluk. Siyosatnoma. - T.: Adolat, 1997.
37. Temur tuzuklari. -T.: 1991, 1996.
38. Temur va Ulug'bek davri tarixi. -T.:1996.
39. Sharafiddin Ali YAzdiy. «Zafarnoma». - T.: SHarq.1997.
40. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. - T.,2001.
41. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. T.,2004.
42. Hayitov J.Sh. Jahon tarixi. O'quv qo'llanma. Buxoro "Durdona" nashriyoti.
43. 2021. – 280 bet.
44. 2. Jahon tarixi (I tom, I qism) / darslik / T.: -NAVROZ, 2018. –260 b
45. 3. Jahon tarixi (Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi) / o'quv
46. qo'llanma / T.: -NAVROZ, 2018. –304 b.
47. 4. Roger B. Beck, Linda Black, Larry S. Krieger, Philip C. Naylor, Dahia.

IKKINCHI VA UNDA KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLIH BO'YICHA KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONLARI

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi va 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

Abituriyentning suhbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
a) berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini tg'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.	22-25
b) berilgan savolni yetarli darajada bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolining nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	19-21
d) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.	14-18
e) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik.	0-13

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.